Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24320794

ta’minlashning ustivor yo‘nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

yo‘qotishlar liniyalarning turiga qarab sezilarli darajada farqlanadi. Ochiq simli (aluminiy) liniyalar va izolyatsiya qilingan liniyalardagi yo‘qotishlar quydagi ko‘rinishda bo‘ladi.

Ochiq simlar odatda yuqori o‘tkazuvchanlikka ega aluminiy materialidan tayyorlangan bo‘lsada, qarshiligi past bo‘lgan misga nisbatan yuqoriroq bo‘ladi. Bu, ayniqsa, uzun masofalarga energiya uzatilganda, elektr energiyasining issiqlik shaklida yo‘qolishiga olib keladi. Ochiq simli tarmoqda yo‘qotishlar umumiy quvvatning 5-10% gacha bo‘lishi mumkin. Havodagi shamol, yomg‘ir va qor ochiq simlarning qarshiligini oshiradi, natijada yo‘qotishlar ko‘payadi. Masalan, qishda qordan hosil bo‘ladigan muz qatlami elektr oqimi o‘tishini murakkablashtiradi. Yuqori kuchlanishli ochiq liniyalarda havo ionlanishi natijasida korona yo‘qotishlari yuzaga keladi. Bu yo‘qotishlar, ayniqsa, yuqori kuchlanish (220 kV va undan yuqori) bilan ishlaydigan tarmoqlarda ahamiyatlidir.

Izolyatsiya qilingan simlarda elektr yo‘qotishlari, asosan, oqim o‘tgan qismning yaxshi izolyatsiyalanganligi tufayli kamayadi. Aluminiy yoki mis kabellarning yuqori sifatli izolyatsiyasi issiqlik yo‘qotishlarini ancha kamaytiradi. Zamonaviy izolyatsiya qilingan kabellarda yo‘qotishlar 1-3% oralig‘ida bo‘lishi mumkin. Izolyatsiya qilingan liniyalar tashqi sharoitlarga, jumladan, namlik va havo haroratiga kamroq sezgir. Bu ularni o‘ta sovuq yoki issiq sharoitlarda samarador qiladi. Izolyatsiya elektromagnit to‘lqinlarning atrofga tarqalishini oldini oladi, natijada ortiqcha energiya isrofi kamayadi[3, 4].

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, aholi sonining o‘sishi, korxonalar sonining o‘sishi, tashkilotlar sonining o‘sishi, aholi turmush darajasining oshishi kabi omillarning aynan bir hududdagi yillar kesimida o‘zgarish statistik ma’lumotalrini to‘plash zarur. To‘plangan ma’lumotlardan foydalanib elektr energiyasini sarfini kamaytirish va samaradorligin oshirish bo‘yicha ekonometrik modellar qurish kerak. Bundan tashqari uzatish linyalaridagi energiya yo‘qotilishini ham o‘rganish taklifi qilinadi. Izolyatsiya qilingan liniyalar ochiq simli liniyalarga qaraganda samaraliroq bo‘lib, elektr energiyasini uzatishdagi yo‘qotishlarni sezilarli darajada kamaytiradi. Shuningdek, izolyatsiya qilingan liniyalar xavfsizlikni oshiradi va tashqi ta’sirlarga nisbatan barqarorroq ishlaydi. Shu sababli, zamonaviy energiya uzatish tizimlarida izolyatsiya qilingan liniyalar ko‘proq qo‘llanilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Energiya samaradorligi va qayta tiklanuvchi energiya orqali iqlim bo‘yicha maqsadlarga erishish. https://www.gazeta.uz/oz/2023/04/22/column/

2. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI. https://stat.uz/uz/

3. Types of Cable Installations in Electrical Network . https://electrical-engineering-portal.com/types-of-cable-installations-in-electrical-network

4. Modern Power System Analysis Fourth Edition. https://www.academia.edu/104784978/Modern_Power_System_Analysis_Fourth_Edition

FOYDA SOLIG‘I HISOBOTI, UNI TO‘LASH VA HISOBDA AKS ETTIRISH

Timurova Durdona, Abdumuminova Zaxro
Guliston davlat universiteti “Raqamli iqtisodiyot va innotsiyalar” fakulteti talabalari

Published: 23.12.2024

Cite this article: Timurova Durdona, Abdumuminova Zaxro (2024). Foyda solig‘i hisoboti, uni to‘lash va hisobda aks ettirish. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320794

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Annotatsiya: Foyda solig‘ining soliq siyosatidagi o‘rni nihoyatda katta bo‘lib, u iqtisodiyotni tartibga solishda, davlat budjetini shakllantirishda, biznes faoliyatini rivojlantirishda va mamlakatning iqtisodiy o‘sishiga hissa qo‘shishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, foyda solig‘ining siyosatdagi roli va uning o‘zgarishlari iqtisodiy sharoitlarga, davlat siyosatiga va xalqaro me'yorlarga qarab doimiy ravishda o‘zgarib boradi. Xo`jalik yurutuvchi sub’yektlarda foyda solig`ini buxgalteriya hisobida aks ettirish va hisobotlarni belgilangan muddatlarda davlat soliq xizmati organlariga topshirish hamda o`z vaqtida hisoblangan foyda solig`ini to`lash buxgalterlardan kata mahoratni talab qiladi.

Kalit so‘zlar: Foyda solig‘i, soliq to‘lovchilar, bo‘nak to‘lovlari to‘lovchilar; xisobot, soliq qonunchiligi, soliq hisobotlari, iqtisodiy tahlil, huquqiy normalar.

Kirish: Foyda solig‘i korxona daromadlarini soliqqa tortishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu soliq korxonalar tomonidan yil davomida olingan foyda asosida hisoblanadi va davlat budjetining asosiy manbalaridan birini tashkil etadi. Foyda solig‘i hisobotlarini to‘ldirish va ularni taqdim etish jarayoni, nafaqat soliq qonunchiligiga muvofiq bajarilishi lozim, balki korxonaning moliyaviy barqarorligiga ham 82bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Foyda solig‘i bo‘yicha hisobot davri – chorak, soliq davri – yil. Shu sababli foyda solig‘i har bir chorak yakunlari bo‘yicha yil boshidan oshib boruvchi yakun bilan hisoblab chiqariladi. Foyda solig‘i hisob-kitobi (dam olish kunlarini hisobga olgan holda) quyidagicha taqdim etiladi:

I chorak uchun – 20 apreldan kechiktirmay;

II chorak uchun – 20 iyuldan kechiktirmay;

III chorak uchun – 20 oktabrdan kechiktirmay;

IV chorak uchun – hisobot yilidan keyingi yilning 1 martidan kechiktirmay.

Budjet tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan hisob-kitob faqat yil oxirida taqdim etiladi. Agar ushbu tashkilotlarning yil davomida daromadlari bo‘lmasa, ular foyda solig‘i hisob-kitobini taqdim etmaydilar.

Soliqni xuddi o‘sha hisob-kitob taqdim qilinadigan muddatlarda to‘lash lozim. Bunda hisobot davri uchun bo‘nak to‘lovlari shu davr uchun soliqni to‘lash hisobiga hisobga olinadi. Soliq hisob-kitobi summalari va to‘langan bo‘naklar bo‘yicha quyidagi variantlar bo‘lishi mumkin:

bo‘nak to‘lovlari hisob-kitob bo‘yicha foyda solig‘idan ko‘p. Ushbu holatda foyda solig‘ini to‘lash kerak emas, sababi u bo‘nak tarzida to‘langan.Bo‘nak to‘lovlarining hisoblangan soliqdan oshishi keyingi bo‘nak to‘loviga hisobga olinadi;

bo‘nak to‘lovlari hisob-kitob bo‘yicha foyda solig‘iga to‘g‘ri keldi. Bu holatda ham foyda solig‘ini to‘lash kerak emas, sababi u bo‘nak tarzida to‘langan;

bo‘nak to‘lovlari hisob-kitob bo‘yicha foyda solig‘idan kam. Ushbu holatda hisob-kitobni topshirish muddatida hisoblangan soliq va bo‘nak to‘lovlari o‘rtasidagi farqni qo‘shimcha to‘lanishi kerak.

Agar korxona bo‘nak to‘lovlarini to‘lamagan bo‘lsa, hisob-kitob bo‘yicha foyda solig‘ini hisob-kitobni taqdim etish muddatlarida to‘langi maqsadga muvofiq.

Bo‘nak to‘lovlarini hisoblab chiqarishning ikkita varianti mavjud83 :

soliq organi tomonidan;

bo‘nak to‘lovlari summasi to‘g‘risidagi Ma’lumotnoma bo‘yicha.

Kompaniyalar foyda solig‘i bo‘yicha bo‘nak to‘lovlarini to‘lashi shart bo‘lgan me’zon o‘rnatilgan bo‘lib, unga ko‘ra, o‘tgan yilda jami daromadi (tuzatishlardan keyin)

[82] O`zbekiston Respublikasining “Soliq kodeksi” ning 339-moddasi. 30.12.2019-yil.
[83] O`zbekiston Respublikasining “Soliq kodeksi” ning 340-modda 11-qism. 30.12.2019-yil.

5 milliard so‘mdan ortiq bo‘lgan tadbirkorlik sub’ektlari har oyda ushbu oyning 23-kunidan kechiktirmay bo‘nak to‘lovlarini to‘lashi kerak. Mazkur me’zon darajasi 2023 yilning to‘rtinchi choragidan boshlab 5 milliard so‘mdan 10 milliard so‘mgacha oshirildi. Bo‘nak to‘lovlarini har oyning 23-sanasidan kechiktirmay (dam olish kunlarini hisobga olgan holda) to‘lang, ya’ni:

23 yanvardan;

23 fevraldan;

23 martdan va hokazo.

2023 yilda bo‘nak to‘lovlarini to‘lash tartibi

Chorak	**Yil boshidan beri daromad darajasi**	**Bo‘nak to‘lovlari**
Birinchi	5 mlrd so‘mdan yuqori	II chorakdan boshlab to‘lanadi
Ikkinchi	5 mlrd so‘mdan yuqori	III chorakdan boshlab to‘lanadi
Uchinchi	10 mlrd so‘mdan yuqori	IV chorakdan boshlab to‘lanadi
To‘rtinchi	10 mlrd so‘mdan yuqori	2024 yildan boshlab to‘lanadi

2023 yildan boshlab foyda solig‘i to‘lovchilari soliqlarni xabarnoma yuborish tartibida bo‘lib-bo‘lib to‘lash huquqiga ega bo‘ldilar84.

Bu huquq o‘tgan yil yakunlari bo‘yicha jami daromadi o‘n mlrd so‘mdan oshmagan korxonalarga beriladi, quyidagilar bundan mustasno:

-ustav fondida davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan yuridik shaxslar;

-yer qa’ridan foydalanuvchilar;

-aksiz osti mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar.

Bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini olish uchun qarzdorlik yuzaga kelgan sanadan boshlab, 1 oy ichida soliq organlariga bo‘lib-bo‘lib to‘lash huquqi to‘g‘risida xabarnoma yuborish kerak bo‘ladi. Bo‘lib-bo‘lib to‘lashni taqdim etish tartibi Soliq kodeksining 101-moddasida belgilangan. E’tiborlisi shundaki bo‘lib-bo‘lib to‘lash korxonaning sof aktivlari qiymatidan oshmaydigan summaga beriladi.85). Agar soliqlarni bo‘lib-bo‘lib to‘lashdan kalendar yil davomida bir marta foydalanilgan bo‘lsa, foizlar 6 oy davomida hisoblanmaydi.

Foyda solig‘ini hisobda qanday aks ettirish kerak

Foyda solig‘i foyda hisobidan foyda solig‘i to‘langunga qadar hisoblanadi. Ushbu foydadan soliq summasini chegirib tashlaganimizdan so‘ng bizda sof foyda (yoki sof zarar), ya’ni hisobot davrining yakuniy moliyaviy natijasi hosil bo‘ladi.

Hisoblangan foyda solig‘ini Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotning 250-satrida aks ettiriladi.

Buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettirish mumkin:

[84] O`zbekiston Respublikasining “Soliq kodeksi” ning 100-modda. 30.12.2019-yil.
[85] O`zbekiston Respublikasining “Soliq kodeksi” ning 100-modda 3-qism. 30.12.2019-yil.

Xo‘jalik operatsiyasi mazmuni	Schotlar korrespondensiyasi	
	debet	kredit
Foyda solig‘i bo‘yicha bo‘nak to‘lovi to‘landi	4410	5110
Foyda solig‘i hisoblandi	9810	6410
Bo‘nak to‘lovlari hisobga olindi	6410	4410
Hisob-kitob bo‘yicha foyda solig‘i to‘landi	6410	5110
Foyda solig‘i bo‘yicha penya hisoblandi	9430	6410
Foyda solig‘i bo‘yicha penya to‘landi	6410	5110

Foyda solig‘i bo‘yicha penyalarni boshqa operatsion xarajatlarga kiritish zarur ((9430-schot) Nizom 2.3.15.13-b., 05.02.1999 yildagi 54-son VMQga ilova).

Bu chegirilmaydigan xarajatlar hisoblanib, (SK 317-m. 19-b.) buxgalteriya hisobida 6410-schotning alohida subkontosida aks ettiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (yangi tahriri) 30.12.2019yil

2. «O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘RQ-599-sonli O‘zbekiston Respublikasi Qonuni.

3. Soliq Solish Asoslari. 2024-yil, Ibrohim Axmadxonov

4. Moliya va soliqlar .Darslik B. A. Xasanov, B. A. Xashimov, A. B. Muxametov, A. A. Abduvoxidov, J. M. Urazmatov, G‘. B. Akramov, M. A. Narbayeva, D. B. Eshpulatov. Toshkent 2023-yil.

5. www.mf.uz - O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti.

6. www.lex.uz - O‘zbekistan Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

7. https://soliq.uz. - O‘zbekistan Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining rasmiy sayti.

8. www.mineconomu.uz - O‘zbekistan Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi sayti.

9.www.stat.uz - O‘zbekistan Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi rasmiy sayti.

10. Siat.stat.uz – - O‘zbekistan Respublikasi yagona axborot portal

AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISH IQTISODIYOTDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNI JADALLASHTIRISH VA ULARNING HUQUQ VA MANFAATLARNI SO‘ZSIZ TA'MINLASH, BARQAROR BANDLIK VA YUQORI DAROMAD TOPISHGA ERISHISH - KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHNING MUHIM SHARTI

Eshjanova Sohiba Masharip qizi
Chirchiq davlat pedogogika universiteti talabasi

Sa’dullayeva Mahfuza Husenovna
Nazoratchi o‘qituvchi: Chirchiq davlat pedogogika universitet
sadullaevamahfuza5@gmail.com

Annotatsiya. Aholi farovonligini oshirishda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash va bu borada tadbirkorlikni jadallashtirishning muhim o‘rni yoritiladi. Xususan, tadbirkorlarning huquq va manfaatlarini so‘zsiz ta'minlash, ularga